



## YURIDIK XIZMAT XODIMLARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

**Abdullayeva Sitorabonu Faxriddin qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10522563>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-January 2024 yil

Ma'qullandi: 10- January 2024 yil

Nashr qilindi: 17- January 2024 yil

### KEY WORDS

*kompetensiya, kasbiy  
kompetentlik, yuriskonsult,  
gnoselogik, normativ, funksional.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada kompetensiya, yuridik xizmat xodimlarining kasbiy kompetensiyasi, gnoselogik, normativ, funksional va shaxsiy kompetensiya tushunchalari o'rganilgan, shuningdek, bu borada xorijiy olimlarning nazariyalari tadqiq etilgan. Yuristlar malakasini oshirish markazi hamda Yuridik xodimlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazlarining faoliyati yoritib berilgan.*

Bugungi kunda yurisprudensiyada malakali mutaxassislarni kasbga tayyorlash borasida ularda "kompetensiyalar" deb ataluvchi sifatlarni shakllantirish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Yuridik xizmat xodimining kasbiy kompetensiyasi nima ekanligini aniqlashdan oldin "kompetensiya" tushunchasiga qisqacha to'xtalib o'tsak.

Kompetensiya lotincha so'zdan olingan bo'lib, "erishaman", "mos kelaman", "yarayman" degan ma'nolarni bildiradi. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida bu tushuncha davlat apparatida faoliyat olib boruvchi muayyan davlat organi yoki mansabdor shaxsning yuridik jihatdan belgilab berilgan vakolatlari, huquq va majburiyatlari yig'indisi sifatida izohlangan.

Pedagog Berezkina kompetentlik tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: kompetentlik zamirida mutaxassisning intellektual, psixologik, axloqiy hamda funksional jihatdan faolligi holatlari tushuniladi. Kompetentlik mutaxassisning egallagan bilim, ko'nikma hamda malakalarini, shuningdek, tajribalari va axborot boyligini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini o'zida aks ettiradi."<sup>1</sup>

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, yuriskonsult kompetentligi deganda, kasbiy tayyorgarlik hamda kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida olinadigan huquqiy va boshqa maxsus bilimlar hamda kasbiy tajribaning mavjud ekanligi tushuniladi.

Yuridik adabiyotlarda yuriskonsult kompetentligining quyidagi 4 ko'rinishi mavjudligi haqida aytib o'tilgan:<sup>2</sup>

1. Gnoselogik kompetensiya.

<sup>1</sup> Бerezкина Т.Е., Петров А.А. Организационно-управленческая деятельность юриста: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры/2-е изд. перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2019. – С. 55.

<sup>2</sup> Скакун О. Ф., Овчаренко Н. И. Юридическая деонтология : учебник. Харьков, 1998. – с 66.

2. Normativ kompetensiya.
3. Funksional kompetensiya.
4. Shaxsiy kompetensiya.

Yuriskonsultning *gnoselogik kompetentligi* deyilganda, uning kasbiy bilim, ko'nikma va malakasini doimiy ravishda yangilab, takomillashtirib borishi tushuniladi. Yuriskonsult o'z bilimlarini doimiy boyitib borishi uchun milliy hamda xorijiy tajriba yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

*Normativ kompetentlik* deganda, yuriskonsultning qonun hujjatlarida mustahkamlangan vakolatlari, huquq va majburiyatlari tushuniladi.

Yuriskonsultning o'z shaxsiy tajribasidan kelib chiqqan holda o'ziga yuklatilgan yuridik majburiyatlarni bajarishi *funksional kompetentlik* deyiladi.

*Shaxsiy kompetensiya* esa yuriskonsultning o'z kasbiy mahoratini baholay olishi, o'zini tanqid va tahlil qila olishi sanaladi.

Huquqshunos Muhammadiyevning fikricha, yurist o'zining muhim ijtimoiy roliga munosib sanalgan shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Yuriskonsultning bu fazilatlari quyidagilar kiradi:<sup>3</sup>

Yuksak fidoyilik, intellektual salohiyat, axloq, o'z vazifasini bajarish uchun burch hamda mas'uliyat hissi yuksak darajada rivojlanganligi, qaror qabul qilishda prinsipiiallik va mustaqil fikrlash, o'z ishiga sodiqlik, huquqbuzarlikka murossasizlik hissi, odillik, yuksak darajadagi insonparvarlik tabiati, kasbiy odob va axloq, shaxsiy yetuklik, xushmuomalalik. Ayni paytda yuriskonsultda professional faoliyatiga xalaqit beradigan, yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarga qarama- qarshi shaxsiy sifatlarning mavjudligi uning kasbiy jihatdan noliyqligidan darak beradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik-huquqiy islohotlar zamonaviy xalqaro standartlarga to'la javob beradigan malakali yuridik kadrlarni tayyorlashga qaratilgan tizimni yaratishni o'z ichiga qamrab oladi. Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish"<sup>4</sup> maqsadi davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirishni o'z ichiga qamrab olgan. Strategiyada ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilangan:

- barcha darajadagi rahbar kadrlar va xodimlarning "hayot davomida ta'lim olish" (Life Long Learning) tamoyili asosida butun faoliyati davomida o'zlariga zarur bo'lgan ko'nikmalarini rivojlantirib borishga qaratilgan malaka oshirish tizimining yagona qoidalarini belgilash.
  - Davlat fuqarolik xizmatchisining uzluksiz malakasini oshirish va kasbiy rivojlanishi — davlat fuqarolik xizmatini o'tashning muhim sharti etib belgilash.
  - Davlat fuqarolik xizmatchilarining moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish.

Bundan tashqari, 2019-yi 3-oktabrda "O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

<sup>3</sup> Мухаммадиев. А. Юристинг одоб-ахлоқ қоидалари. Ўқув қўлланма/ ю.ф.н., доцент А.Фафуровнинг умумий таҳрири остида.- Т.: Юристар малакасини ошириш маркази, 2015. – 97 б.

<sup>4</sup> 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – 10-maqsad.

to'g'risida"gi 5843-sonli Prezident Farmoni qabul qilingan bo'lib, mazkur hujjat asosida O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosatini va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirishga oid birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Shunisi diqqatga sazovorki, dasturda davlat fuqarolik xizmatiga kasbga oid sifatleri hamda alohida xizmatlarini odilona va obyektiv baholash asosida eng munosib va qobiliyatli shaxslarni qabul qilish va ularning xizmat pag'onalari bo'yicha ko'tarilishini nazarda tutuvchi *meritokratiya tamoyilini* qo'llash davlat fuqarolik xizmatini yanada isloh etishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

"Meritokratiya" deganda, muayyan boshqaruv tamoyili tushunilib, bu tushuncha uchun shu narsa xoski, eng yaxshi bilim, qobiliyat, tajribaga ega insonlar yuqori laozimlarni egallaydi. Bu narsa insonlarning jamiyatdagi ijtimoiy hamda iqtisodiy mavqeyiga bog'liq emas.<sup>5</sup>

Demak yuqoridagilarga asoslanib aytadigan bo'lsak, meritokratiya tamoyili deganda, shaxsning kasbiy rivojlanishi hamda mavqeyi uning qobiliyati va mahoratiga bog'liq bo'lgan tizim tushuniladi.

Farmonda nazarda tutilgan ushbu tamoyilni amalga oshirish, avvalo, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu sababdan milliy qonunchilikda tartibga solingan kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish bilan bog'liq ishlar sifatini oshirishda xorijiy davlatlarning yuridik kadrlar professional korpusini shakllantirish borasidagi huquqiy tajribasini o'rganish muhim sanaladi.

O'zbekistonda yuridik xizmat sohasini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lami kuchayib borayotganini inobatga olgan holda ushbu maqola doirasida bir qancha xorijiy davlatlar, jumladan, Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya davlat tashkilotlarida faoliyat yurituvchi yuriskonsultlar misolida yuridik xizmat xodimlarini kasbga tayyorlash ishlarini tashkil qilishning ayrim jihatlariga to'xtalib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

*Singapurda* yuridik xizmat sudlarda, prokuraturada, shuningdek, davlat idoralarining yuridik bo'linmalarida faoliyat yurituvchi advokatlar – yuridik xizmat xodimlarining jamoaviy yig'ini sanaladi. Bu mamlakatda yuridik xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar tayyorlashda oliy yuridik ma'lumot bilan bir qatorda "Singapur Bar imtihonlari kursi" deb ataluvchi 6 oy muddatli tayyorlov kursini tugatish va amaliyot o'tash majburiy tarzda amalga oshiriladi.<sup>6</sup>

*Janubiy Koreyada* yuridik xizmat xodimlarini kasbga tayyorlashning yevropacha modeli qo'llaniladi. Jumladan, bu mamlakatda 2017-yilda "Huquq maktablari to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lib, unga asosan yuridik kadrlar tayyorlashning yangi bosqichi yo'lga qo'yilgan. 2017-yildan boshlab yuridik kadrlarni kasbga tayyorlash ishi bilan Huquq maktablari shug'ullanib keladi. Yuridik xizmat xodimi amaliyotni boshlashi uchun 3 yillik ta'limga ega bo'lishi, maxsus imtixonidan o'tishi hamda yuristlarning kollegial organi sanaluvchi Janubiy Koreya Bar Assotsatsiyasiga a'zo bo'lishi kerak. Janubiy Koreyada yuridik xizmatni tashkil qilishning yana bir o'zgacha tomoni shundaki, 2009-yilda qabul qilingan

<sup>5</sup> X.S.Fayziyev. Davlat boshqaruvi organlarida yuridik xizmat tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. B 137.

<sup>6</sup> <https://www.mlaw.gov.sg/our-work/legal-services-regulatory-authority>/Singapore Government Agency Website.

“Xorijiy yuridik maslahatchilar to‘g‘risida”gi Qonunga asosan xorijiy kompaniyalarga yuridik xizmat ko‘rsatishning yo‘lga qo‘yilganligidir.<sup>7</sup>

*Buyuk Britaniyada* yuridik xizmat xodimlariga nisbatan nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligi ta‘minlangan. Buyuk Britaniyada yuriskonsultlarda nazariy bilimlar bilan bir qatorda quyidagi ko‘nikmalarning bo‘lishi talab etiladi:<sup>8</sup>

- mantiqiy fikrlash;
- ingliz tilini mukammal bilish;
- og‘zaki va yozma muloqot qila olish;
- vaziyatga nisbatan tanqidiy fikrlash;
- axborot texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha kompetensiyaga ega bo‘lish.

*Germaniyada* yuriskonsult lavozimiga nomzodlar tanlashda ish beruvchilar nomzodlarda quyidagi kompetensiyalarning mavjudligiga e‘tibor qaratishadi:<sup>9</sup>

- tugallangan yuridik ma‘lumot va tegishli muqobil malaka;
- muammolarni hal qilish qobiliyati va tahliliy ko‘nikmalar;
- munozara qilish qobiliyati;
- strategik fikrlash qobiliyati;
- imij;
- stressga chidamlilik.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yuridik xizmat xodimlarini tayyorlashda ta‘lim muassasalarida o‘quv modullarini o‘qitish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ta‘lim muassasalarida yuridik xizmat xodimlarini tayyorlashda umumiy tendensiya mavjud bo‘lib, ular ham yurisprudensiyaning umumiy fanlarini o‘qitish orqali kasbga yo‘naltirilmoqda. Ammo bugungi kunda zamonaviy yo‘nalishlar, xizmatlar ko‘rsatish masalasi yuzasidan mehnat bozorida zarur bo‘lgan modullarni yurisprudensiya o‘quv modullariga kiritish dolzarb masala sanaladi. *Yaponiya* tajribasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, bu davlatda yuridik kadrlarga yuridik tusdagi hujjatlarning ekspertizasi bo‘yicha alohida fan o‘qitiladi hamda yakuniy imtixon topshirishda ushbu fandan ham imtixon topshirish shart sanaladi.

Mamlakatimizda yuridik kadrlarni tayyorlash maqsadida yurisprudensiya sohada talim berib kelayotgan Toshkent davlat yuridik universiteti bugungi kunda sohaga oid malakali mutaaxassislarini yetishtirib bermoqda. Ammo universitetning o‘quv modulida na bakalavriyat, na magistratura yo‘nalishida “yuridik xizmat” deb nomlanuvchi o‘quv fani mavjud emas. Toshkent davlat yuridik universitetining bakalavriyat va magistratura ta‘lim yo‘nalishlarida *Yaponiya* tajribasidan kelib chiqqan holda yuridik xizmatga oid o‘quv fanlarini joriy qilish hamda talabalar va magistrlarda hujjatlarning huquqiy ekspertizasi bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Universitetda mazkur o‘quv fanini o‘qitishni yo‘lga qo‘yish yuridik xizmat sohasida malakali yuridik kadrlar yetishib chiqishiga turtki bo‘ladi.

<sup>7</sup> <https://opentoexport.com/article/legal-services-sector-in-south-korea/>.

<sup>8</sup> Rekosh E. The Development of Legal Clinic Teaching: A Global Perspective in The Legal Clinics: The Idea, Organization, Methodology. Warsaw, 2005.

<sup>9</sup> X.S.Fayziyev. Davlat boshqaruvi organlarida yuridik xizmat tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. B 139.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-366-son qaroriga asosan Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik xodimlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazi tashkil etildi.

Xalqaro miqyosda O'zbekiston Respublikasi va mamlakat tashkilotlari manfaatlarini munosib ifoda eta oladigan yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash, oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarni yuridik mutaxassislikka qayta tayyorlash kurslarini tashkil qilish orqali yuridik ta'lim olishga keng imkoniyat yaratish, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida huquqiy fanlardan dars beruvchi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish Markazning asosiy maqsadi sanaladi.<sup>10</sup>

Yuridik xodimlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazida yuridik mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan va belgilangan namunadagi diplomni olgan shaxs Yuridik xizmat ko'rsatish markazida yuriskonsult sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

Shu sababli oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarni yuridik mutaxassislikka qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan kadrlarning yuridik xizmat xodimi sifatida faoliyat yuritishi uchun qayta tayyorlov kurslarida yuridik xizmat sohasiga oid fanlarni o'zlashtirishi, yuridik tushdagi hujjatlarni huquqiy ekspertizasini amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi talab qilinadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining yuqori malakali yurist kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, o'z navbatida, zamonaviy bilimlar asosida huquqshunos kadrlarning kasbiy tayyorgarligini hamda ularni qayta tayyorlashni tubdan yaxshilashni taqozo etdi. Bu sohada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-iyunda "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 531-sonli qarorining qabul qilinishi muhim qadamlardan biri sanaladi.

Hukumatning ushbu qarori binoan Markazga yangi vazifalar yuklatilgan hamda Markazning yangi tasdiqlangan Ustaviga muvofiq vazifa va yo'nalishlari aniqlashtirilgan. Xususan, bugun kunda Markazning asosiy maqsadi sifatida adliya organlari hamda advokatura xodimlarini, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar tashkilotlarning yuridik xizmati xodimlari (yuriskonsultlari) va ularga tenglashtirilgan boshqa soha mutaxassislari malakasini oshirish va qayta tayyorlashdan iboratligi belgilab berilgan.

Markazda o'quv mashg'ulotlari "Yurist kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari" asosida tashkil etilgan bo'lib, yuridik kadrlar oldida turgan vazifalar, huquqshunoslik fani va amaliyotining eng so'nggi yutuqlari inobatga olingan.

O'quv dasturlariga yuridik fanlar va mutaxassislikka oid mavzular bilan bir qatorda, tinglovchilarning rahbarlik va vaqtni samarali tashkil etish, boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashishga qaratilgan «Vaqtni idora etish va ish jarayonini samarali tashkil qilish», «Nizoli vaziyatlarni hal etish», «Fuqarolar va protsess ishtirokchilari bilan muloqotda bo'lish ko'nikmalari», «Boshqaruv ko'nikmalarini o'stirish», «Ish joyida stressni

<sup>10</sup> <https://centertsul.uz/uz/markaz-a-ida>

idora eta bilish», «Notiqlik madaniyati», «Yuridik nutq madaniyati», «Yurist kasb etikasi» kabi mavzular kiritilgan.<sup>11</sup>

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, yuriskonsultning o'z kasbiy kompetentligi nuqtayi nazaridan yuridik xizmat faoliyatini amalga oshirishga tayyor bo'lishi oliy ta'lim muasasasida o'qishi davomida amalga oshirilishi lozim. Bundan tashqari, yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimini xalqaro tajribaning umume'tirof etilgan standartlariga javob beradigan tarzda takomillashtirish yuridik xizmat sohasida professional mutaxassislarning shakllanishiga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
2. Березкина Т.Е., Петров А.А. Организационно-управленческая деятельность юриста: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры/2-е изд. перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2019.
3. Скакун О. Ф., Овчаренко Н. И. Юридическая деонтология : учебник. Харьков, 1998.
4. Мухаммадиев. А. Юристинг одоб-ахлоқ қоидалари. Ўқув қўлланма/ ю.ф.н., доцент А.Фафуровнинг умумий таҳрири остида.- Т.: Юристар малакасини ошириш маркази, 2015.
5. X.S.Fayziyev. Davlat boshqaruvi organlarida yuridik xizmat tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi.
6. Rekosh E. The Development of Legal Clinic Teaching: A Global Perspective in The Legal Clinics: The Idea, Organization, Methodology. Warsaw, 2005.
7. Bozorova, G. (2023). Лингвопрагматическая характеристика плеонастических единиц используемых в политической речи. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 34(34). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/9752](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9752)
8. Zayniddinova B. G. Ortiqchalik tamoyilining jahon tilshunosligida organilishi. – 2021.
9. Bozorova, G. (2021, February). Tautology and pleonasm: synchronic and diachronic views. In Конференции.
10. Yarashovna, S. G., Istamovna, A. N., & Zayniddinova, B. G. (2023). Methods of Using Metaphorical, Pleonastic and Paremic Units in Uzbek Linguistics. *resmilitaris*, 13(2), 5560-5572.
11. Samandarova, G. Y. (2021). Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects. *current research journal of philological sciences*, 2(05), 39-42.
12. Bozorov Z.A International scientific and practical conference "Modern psychology and pedagogy: problems and solutions" "Imperial College London" 2021-2022. 165-169 б.
13. Бозоров З.А. The system of formation of civic culture among students in higher educational institutions. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 01 (81), 455-458. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-01-81-81> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC: 3304. (2020).
14. Kadyrovna A. M., Zayniddinova B. G. Description of Events Which is Near to Pleonasm //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2022. – Т. 5. – С. 281-285.
15. <https://opentoexport.com/article/legal-services-sector-in-south-korea/>.

<sup>11</sup> <https://uzmarkaz.uz/page/about>.

16. <https://centertsul.uz/uz/markaz-a-ida>.
17. <https://uzmarkaz.uz/page/about>.



INNOVATIVE  
ACADEMY